

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA FE'L SO'Z TURKUMINING O'QITILISH TAHLILI.

*Qodirjon Mo'ydinov,*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti,  
o'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, filologiya bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Baxramova Nodira,*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Ta'lim tizimida mustaqil so'z turkumlari, fe'l so'z turkumining leksik-grammatik xususiyatlari, vazifalari, ma'no turlari kabi ko'plab tilshunos olimlar tadqiqot ishlari olib borganlar, dissertatsiyalar, monografiyalar va maqolalar yozib e'lon qilganlar. Morfologiya grammatikaning bir qismi bo'lib, so'z shakllari va so'z turkumlarini o'rganadi. Morfologiyani o'qitishda asosiy e'tibor so'zning tuzilishi, yasalishi va so'z turkumlariga bo'linishiga qaratiladi.

Kalit so'zlar: tizim, yasalish, dissertatsiya, monografiya, morfologiya, grammatika, tuzilish, tadqiqot.

Ta'lim tizimida mustaqil so'z turkumlari, xususan, fe'l so'z turkumining leksik-grammatik xususiyatlari, vazifalari, ma'no turlari kabi masalalari bo'yicha qator olimlar, jumladan, B. Mengliyev, N. Mahmudov, A. Nurmonov, B. To'xliyev, H. Ne'matov kabi tilshunoslarimiz tadqiqot ishlari olib borganlar, dissertatsiyalar, monografiyalar va maqolalar yozib e'lon qilganlar. Morfologiya grammatikaning bir qismi bo'lib, so'z shakllari va hosil bo'lish yo'llarini, so'z turkumlari bo'limini o'rganadi. Tilning grammatika qismi morfologiya va sintaksisdan tarkib topgan bo'lib, har ikki bo'limning o'ziga xos xususiyatlari, ahamiyati va vazifalari mavjud. Morfologiya grammatikaning bir qismi bo'lib, so'zning shakllari, bu shakllarining hosil bo'lish yo'llari va so'zlarning ma'lum belgilar asosida guruhlarga, ya'ni so'z turkumlariga bo'linishini o'rganadi. Shu

bois, morfologiyani o'qitishda asosiy e'tibor so'zning tuzilishi, yasalishi, so'z turkumlariga bo'linishiga qaratiladi. Morfologiyaga oid dastlabki ma'lumotlar boshlang'ich sinflarda beriladi. So'zlarni otlar, sifatlar, sonlar, fe'llar kabi guruhlariga ajratish boshlang'ich sinfda amalga oshiriladi. Umumiy ta'lim bosqichida morfologiya va uni o'qitishning ham ilmiy, ham amaliy zaruriyati bor. Uning ilmiy zaruriyati shundaki, keyingi bosqichda o'rganiladigan "Sintaksis" bo'limini bevosita morfologiya bilan bog'langan. Chunki kelishik, egalik va shaxs-son qo'shimchalar garchand morfologiya obyekti sanalsa-da, ammo ular gap qurilishida so'z va so'z birikmalari orasidagi sintaktik aloqani ta'minlovchi vosita sanaladi. Qo'shimcha gap sintaksisini o'rganishning bevosita yordamchi so'zlar bajaradigan vazifalar bilan aloqadorligi hisobga olinsa, morfologiya yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. Maktabda morfologiyani o'qitishning amaliy ahamiyati shundaki, leksikologiyadan egallangan zaruriy bilimlar mazkur o'rganishda o'z amaliy ifodasini topadi. O'quvchi mustaqil va yordamchi so'z turkumlarini o'rganishda so'zning o'z va ko'chma ma'nosi, uyadosh, shakldosh, qarama-qarshi ma'noli so'zlarga yana murojaat qiladi va so'z boyligini oshirish, so'zdan to'g'ri ham o'rinli foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Orfografiyaning morfologiya bilan aloqadorligi ham maktabda bu bo'limni o'rganishni zaruriyatga aylantiradi. Chunki morfologik prinsip orfografiyaning yetakchi prinsipi sanaladi.

Shunday qilib, maktab morfologi kursi quyidagi vazifalarni hal qilishni ko'zda tutadi:

- o'quvchilarni so'z yasashga, so'zning yangi shakllarini hosil qilishga o'rgatish; so'z zaxirasini oshirish, so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalarini kengaytirish;
- so'zlarning aloqa-munosabat shakllaridan foydalanish malakalarini kengaytirish;
- ilmiy savodxonlikni takomillashtirish;
- gap guruh va matn yaratish malakalari ustida ishlash;
- DTSda ko'zda tutilgan talablar har bir mavzuni o'rganish jarayonida izchillik bilan amalga oshirildi.

O'quvchilarni so'z turkumlarini o'rganishga tayyorlash. So'zlarni turkumlarga ajratish "To'plam" va "tasnif" tushunchalarining mohiyatini anglash bilan chambarchas bog'langan. O'quvchilar 6-sinf darsligini 1-betidagi rasmda berilgan narsa-buyumlarni shu buyumlar orasidagi o'xshashliklar asosida guruhlash orqali "to'plam" va "tasnif" xususida umumlashma hosil qiladilar. "To'plam" deyilganda tahlil qilish, o'rganish uchun olingan har xil narsalar, berilgan voqea-hodisalar majmuasi tushuniladi. "Tasnif" esa to'plamni avval kattaroq guruhlariga, so'ngra bunday guruhlarining o'zini ichki turlarga, ajratilgan turlarni ichki xillarga, xillarni navlarga, navlarni ko'rinishlarga bosqichma-bosqich saralashdir. Tasnif xususida o'quvchilar hosil qilgan tasavvurlar darslikning 13-betida berilgan "Tasnif-borligini bilish asosi" ma'rifiy matni orqali mustahkamlanadi. O'quvchilar "to'plam" va "tasnif" tushunchalarning mohiyatini anglashgach, so'z tarkibi va qo'shimchalar tasnifi o'rganishga tayyor bo'ladilar. So'zni o'zak va qo'shimchalarga ajratish va so'z turkumlarini o'rganishga puxta zamin hozirlaydi. O'quvchilar berilgan so'zlardan o'zakdoshlarni topish, o'zakdoshlar nima bilan bir-biridan farqlanishini tushuntirish, o'zakdosh so'zlarni qo'shimchadoshlarga ajratish, qo'shimchalarning o'zaklarga qanday qo'shimcha ma'no qo'shayotganligini aniqlash orqali o'zak va qo'shimcha haqida keng ma'lumotga ega bo'ladilar. So'zning o'zagini aniqlay olish, qo'shimchalarining turlarini bilish fe'l, ot, sifat, ravishlarni tub va yasama so'zlarga to'g'ri ajrata olish imkonini beradi. O'quvchilar so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi, va shakl yasovchi qo'shimchalar xususida zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashgach, so'z tarkibi bilan tanishadilar hamda so'zning asosi xususida umumlashma hosil qiladilar. Bu so'z turkumlarini puxta o'rganish uchun poydevordir.

Maktab darsligida fe'lning qo'shimchasini tasniflashda izchillik yo'q. Masalan, ayrim darslikda zamon, shaxs-son, mayl, bo'lishli-bo'lishsizlik, kesimlik, ya'ni munosabat shakli sifatida beriladi. Qolgan fe'l qo'shimchasi (nisbat, vazifa shakli, ko'makchi fe'l, harakatning kuchsiz darajasi va davomiyligini bildiruvchi qo'shimcha) lug'aviy shakl sirasiga kiritiladi. Boshqasida zamon, shaxs-son, mayl munosabat shakli sifatida olinib, bu shaklga ega bo'lgan har qanday fe'l gapda kesim vazifasida keladi

deyiladi va bo'lishli-bo'lishsizlik shakli haqida hech narsa deyilmaydi. Natijada uning lug'aviy shakli yoki munosabat shakli ekanligi noaniq bo'lib qoladi. Harakatning kuchsiz darajasi va davomiyligini bildiruvchi qo'shimcha (kulimsira, oqarinqira, turtkila kabi) ham shunday. Demak, bu masalada aniq fikr aytilgan H.Ne'matov, A.G'ulomov, M.Abduraimova va M.Qodirovning 7- sinf uchun 2000- yilda chop etilgan "Ona tili" darsligiga tayangan ma'qul.

### ***Eslatma***

*1. Yuqorida sanalgan munosabat shakli ko'proq fe'lga xos. Boshqa so'z turkumi ham kesim vazifasida kelsa, ushbu shaklga ega bo'la oladi. Masalan:*

*Ot: Men – o'qituvchiman (hozirgi zamon, xabar mayli, tasdiq, birinchi shaxs).*

*Sifat: Gul qizil. (hozirgi zamon, xabar mayli, tasdiq, uchinchi shaxs).*

*Son: Kitoblar o'nta edi. (o'tgan zamon, xabar mayli, tasdiq, uchinchi shaxs).*

*Olmosh: Yig'lagan menman. (hozirgi zamon, xabar mayli, tasdiq, birinchi shaxs).*

*Taqlid: Atrof g'ovur-g'uvur. ((hozirgi zamon, xabar mayli, tasdiq, uchinchi shaxs).*

*2.Bo'lishli-bo'lishsizlik va tasdiq-inkorni farqlash kerak. Fe'l kesimdan boshqa vazifada kelganda bo'lishli-bo'lishsizlikka ega bo'ladi: o'qigan bola – o'qimagan bola kabi.*

*Bo'lishli-bo'lishsizlik faqat fe'lga, tasdiq-inkor barcha mustaqil so'z turkumiga xos.*

*Grammatik ma'no turi. Fe'l grammatik jihatdan o'timli va o'timsiz fe'lga bo'linadi.*

*O'timli fe'l tushum kelishigidagi so'zga bog'lanadi: o'qidi, ko'rди, yod oldi kabi. Bu fe'l kimni, nimani so'rog'iga javob bo'ladi: nimani o'qidi, kimni ko'rди, nimani yod oldi kabi. O'timsiz fe'l tushum kelishigidagi so'zga bog'lanmaydi: bordi, uxladi, ranjidi, xandon urdi kabi. Bu fe'l kimni, nimani so'rog'iga javob bo'lmaydi. O'timli fe'l o'timsizga, o'timsiz fe'l o'timliga aylanib turadi: o'qidi (o'timli) – o'qildi (o'timsiz), yig'ladi (o'timsiz) – yig'latdi (o'timli), yuvdi (o'timli) – yuvindi (o'timsiz) kabi. Fe'lning vazifa shakli bo'lgan sifatdosh otlashadi. Chunki u otga sifatlovchi-aniqlovchi bo'lib keladi, otning shakl yasovchisi va sintaktik vazifasini oladi: Bilmagan (otlashmagan,*

aniqlovchi) narsani (ot, tushum kelishigida, to'ldiruvchi) so'rab bilish kerak: Bilmaganni (otlashgan, tushum kelishigida, to'ldiruvchi) so'rab bilish kerak.

### ***Eslatma***

#### ***Otlashgan so'z otning so'z yasovchidan boshqa qo'shimchasini oladi.***

3. Sintaktik xususiyati. Fe'l gapda quyidagi vazifada keladi:

- kesim: U choyxona yonidan o'tdi. Ojizgina vizillagan tovush eshitildi.
- hol: Bola shoshilib gapirdi. Kula-kula gapirdi.
- aniqlovchi: O'qigan kishi o'zadi. Aytar so'zni ayt.
- kirish: Aytishicha, kechga qaytarmish. Gapiga qaraganda, ko'p ish qilgan.

Otlashganda:

- ega: Eshitgan (kishi) uyaladi. Ko'rgan (odam) gapiradi.
- to'ldiruvchi: Bilmagan (narsa) ni so'rab bilish kerak.
- qaratqich-aniqlovchi: Ko'rmaganning ko'rgani qursin.
- undalma: Eshitgan (kishi) lar, aytinglar.

Lug'aviy ma'noga ega, ega emasligiga ko'ra fe'l turi. Bunga ko'ra fe'l ikkiga bo'linadi:

a) mustaqil fe'l: gapirmoq, pichirlamoq, semirmoq, shishmoq, ranjimoq;

b) nomustaqil fe'l: o'qib bo'lmoq, yozib tashlamoq, asos solmoq, qaror qilmoq.

Nomustaqil fe'l. Nomustaqil fe'l lug'aviy ma'no ifodalamaydi va fe'l yoki boshqa so'zning ma'nosini yangilaydi, ya'ni yangi so'z yasaydi (yordamchi fe'l), bir oz o'zgartiradi (ko'makchi fe'l) yoki so'zni kesim vazifasiga xoslaydi (to'liqsiz fe'l):

1) yordamchi fe'l so'z yasovchi qo'shimcha xususiyatiga ega: sotib oldi, qaror qildi, abgor etdi;

2) ko'makchi fe'l lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha xususiyatiga ega: o'qib chiqdi, aytib qo'ydi, qarab qoldi;

3) to'liqsiz fe'l munosabat shakli yasovchi qo'shimcha xususiyatiga ega: o'qigan ekan, qiziq emish, o'nta edi.

“Fe’l” so‘z turkumi xususidagi dastlabki ma’lumotlar boshlang‘ich sinflarda va “V” sinfda “Muqaddima” bo‘limi orqali beriladi. Shuning uchun mazkur so‘z turkumini o‘rganishdan oldin egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalar takrorlanadi. Berilgan bo‘lishli fe’llardan bo‘lishsiz (va aksincha) fe’llar hosil qilish, ular ishtirokida gaplar qurish, kesim vazifasida kelgan fe’llarning zamonini almashtirib qo‘llash, kesimlarga shaxs-son va zamon qo‘shimchalari qo‘shish ishlari o‘rganilganlarni o‘quvchilar xotirasida tiklash imkoniyatini yaratadi. VI sinfda fe’llarning lug‘aviy shakllari va ma’no guruhlari o‘rganiladi. O‘quvchilar “Tub va yasama, sodda va ko‘chma fe’llar”, “Fe’lning umumiy xususiyatlari”, “Fe’l nisbatlari” (aniq nisbat, orttirma nisbat, majhul nisbat, o‘zlik nisbat, birgalik nisbat), “Nisbat qo‘shimchalarining so‘z yasovchilar bilan yaxlitlanishi va takror qo‘llanishi”, “Fe’lning vazifa turlari”, (harakat nomlari, sifatdoshlar, ravishdoshlar), “Harakat tarzi shakllari”, “Fe’lning ma’naviy guruhlari” (yurish-harakat fe’llari, nutq fe’llari, tafakkur fe’llari, natijali faoliyat fe’llari, natijali faoliyat fe’llari, holat fe’llari singari mavzular bilan tanishadilar.) Mazkur mavzularni o‘rganishda asosiy e’tibor o‘quvchilarning so‘z zaxirasini fe’llar bilan boyitish, og‘zaki va yozma nutqda ulardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish malakalarini kengaytirishdan iboratdir. O‘quvchilarning so‘z zaxirasini fe’llar bilan boyitishning muhim choralaridan biri fe’l-sinonimlar ustida ishlashdir. Berilgan fe’llarga ma’nodoshlar topish (mas., ajablanmoq, taajjublanmoq, hayron bo‘lmoq; ayirmoq, ajratmoq, judo qilmoq, mahrum qilmoq), sinonimik uyadagi ma’nosi tushunarli bo‘lmagan so‘zlarning ma’nosini izohlash, qatordagi har bir so‘z yordamida gaplar tuzish (mas., Salimaxon berilgan so‘zlar ichida fe’llarni ajratdi. Bozorga olib ketilishi lozim bo‘lgan mevalarni bir yoqqa ayirdi), matnni tahrir qilib, takrorlangan fe’llar o‘rniga ularning sinonimlarini qo‘llash singari ijodiy-amaliy ishlardan foydalanish o‘quvchilarning so‘z zaxirasini oshirishda o‘ta muhimdir. “Harakat nomi” mavzusini o‘rganishda berilgan matn yoki gaplarni harakatni atab kelgan so‘zlarni ajratish, ularni qo‘shimchadoshlarga bo‘lib guruhlash, bu guruhlarni mustaqil davom ettirish, qo‘shimchadosh so‘z guruhlari uchun xos bo‘lgan qo‘shimchalar: -sh –ish, -v –uv, -moqni ajratish bu qo‘shimchalar bilan hosil bo‘lgan

soʻzlarning imlosi, gaplarni harakat nomi birikmalarga, birikmalarni gaplarga aylantirish (mas., haqiqat tantana qiladi, - Haqiqatning tantana qilishi kabi), harakat nomlarini zarur, kerak, lozim, shart, muhim kabi soʻzlar bilan birikib, kesim vazifasida kelishi ustida ish olib boriladi. Feʼlning ravishdosh va sifatdosh shakllarini oʻrganishda ham shunga oʻxshash amaliy ishlar davom ettiriladi. Oʻquvchilar berilgan feʼl juftlarini (mas., keldim, ishladim) bogʻlovchilar yoki ohang vositasida bogʻlab gap tuzish, bu feʼllarni – b (=ib), - gach (-kach) qoʻshimchalari bilan biriktirib, gaplarning shaklini oʻzgartirish (mas., men keldim va ishladim – Men keldim, ishladim - Men kelib ishladim – Men kelgach ishladim kabi), ravishdosh yasovchi qoʻshimchalar roʻyxatini tuzish, ular yordamida soʻzlar hosil qilish, bu qoʻshimchalarning imlosi ustida ishlash kabi amaliy ishlardan foydalaniladi.

Sifatdoshlarni oʻrganishda oʻquvchilar berilgan “sifat –ot” shakli birikmalarda (mas., siniq, shisha, buzuq uy, quruq meva) sifatni feʼl bilan almashtirish (mas., singan shisha, buzilgan uy, qurigan meva) va sifatli birikmalar hosil qilish, sifatdoshlarni hosil qiluvchi birikmalarni aniqlash, ularning imlosi, ustida ishlash, sifatdoshlardan foydalanib gaplarning mazmunini saqlagan holda shaklini oʻzgartirish (mas., Kim koʻp oʻqisa, dono boʻladi. –Koʻp oʻqigan kishi dono boʻladi) singari topshiriqlarni berish mumkin.

Maʼlumki, tuslangan feʼllarning ham, tuslanmagan feʼllarning ham boʻlishi va boʻlishsiz shakllari mavjud. Oʻquvchilar bu mavzularni oʻrganishda boʻlishli feʼllarni boʻlishsiz shaklga va aksincha, boʻlishsiz feʼllarni boʻlishli feʼllarga aylantirish, boʻlishsiz shaklini hosil qiluvchi qoʻshimchalarni aniqlash ustida ish olib boradilar.

“Feʼl” soʻz turkumini oʻrganishda, ayniqsa, uyadosh feʼllar ustida ishlash muhim ahamiyatga ega. 5-sinfda oʻquvchilar “Uyadosh soʻzlar” mavzusini oʻrganishda bir qator uyadosh feʼllar bilan ham tanishganlar. Chunki, “Ona tili” darsligi (5-sinf)ning “Lugʻat” qismida namuna sifatida “olmoq” va “koʻrmoq” feʼlining uyadoshlari berilgan. Bu ish 6-sinfda davom ettiriladi. Berilgan umumiy maʼnoli feʼlning xususiy maʼnolarini aniqlash, bir paradigmani tashkil etgan feʼllar roʻyxatini tuzish (mas., nutq feʼllari: soʻzlamok, gapirmok, pichirlamok, shivirlamok, baqirmok, oʻqimok, hikoya qilmoq, qichqirmok, v.h) singari ijodiy-amaliy ishlar oʻquvchilar soʻz zaxirasini oshirishda muhim ahamiyatga

ega. Mazkur soʻz turkumini oʻrganishda oʻquvchini taʼlim jarayonining faol ishlovchisiga aylantirish uchun kuzatish, izlanish, alohidaliklarni sharhlash, qiyoslash, umumiylikni aniqlash, farqlarni topish, tasnif etish, hukm chiqarish, amalda qoʻllash singari aqliy faoliyat usullarini qoʻllash lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1.Неъматов Х., Гуломов А., Абдураимова М., Қосимова Н. Она тили. 6-синф учун дарслик (синов). –Т.: Ўқитувчи, -2000. – 192 б.

2.Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш. ва бошқалар. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Т.: Янги аср авлоди. 2001.

3.Расулов Р. Ўзбек тилида ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. Т., 1989, 141 бет.

4.Раҳматуллаев Ш., Юнусов Р. Семемаларнинг семалар состави ва семантик боғланиш ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1974,1-сон, 51-54-б.

5.Садикова М. Слова обозначающие цвет и окраску в узбекском языке. Автореф. дис ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1963.